



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buguk
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 29-mart, № 64 (8687)


Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni
telefoningiz orqali skaner qiling.



HUDUDLARARO HAMKORLIKNI RIVOJLANTIRISH UCHUN KENG IMKONİYATLAR BORLIGI QAYD ETILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28-mart kuni
Xitoy Xalq Respublikasining Shinjon — Uyg'ur avtonom rayoni
Xalq hukumati raisi Erkin Tuniyaz boshchiligidagi delegatsiyasini qabul qildi.



O'zbekiston va Xitoyning ko'p qirrali hamkorligini yanada kengaytirish, shu jumladan, O'zbekiston hududlari va SHUAR o'rtasidagi amaliy aloqalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari ko'rib chiqildi.

O'zbekiston — Xitoy do'stlik va barcha sharoitda strategik sheriklik munosabatlardagi bugungi yuksak daraja katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

O'zbekistonning Shinjon — Uyg'ur avtonom rayoni bilan tovar ayirboshlashi oshmoqda — bugungi kunda mamlakatlarimiz o'zaro savdosining qariyb 10 foizi shu hududga to'g'ri keladi.

SHUARning yetakchi kompaniyalari bilan hamkorlikdagi investitsiya loyihalari portfeli 3,5 milliard dollarni tashkil etib, bugungi kunda "yashil" energetika va elektrotexnika, qurilish tarmog'i va yangi turdagi qurilish materiallarini ishlab chiqarish, metallurgiya, infratuzilmani modernizatsiya qilish va boshqa yo'nalishlarni qamrab oladi.

Madaniy almashinuvlar dasturi faol amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari SHUAR bilan o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada rivojlantirish va qo'shma loyihalarni jadallashirish muhimligini ta'kidladi. Innovatsion texnologiyalar, qishloq va suv xo'jaligi, transport va logistika, bank-moliya sohasi, ta'lim, an'anaviy tibbiyot kabi bir qator ustuvor yo'nalishlar ko'rsatib o'tildi.

O'zbekiston har yili Urumchi shahrida o'tkazib kelinayotgan "Ekspo Xitoy — Yevroosiyo" bosh ko'rgazmasida faol ishtirok etishi qayd etildi.

Uchrashuvda gumanitar va turizm aloqalarini rivojlantirish masalalari ham atroflicha muhokama qilindi.

O'zbekiston — Qirg'iziston — Xitoy temir yo'lini qurish loyihasini ilgari surishga alohida e'tibor qaratildi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

Senat Kengashida

NAVBATDAGI YALPI MAJLISNI CHAQIRISH YUZASIDAN QAROR QABUL QILINDI

Kecha Oliy Majlis Senati Kengashining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Majlisni Senat Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi. Tadbirida Senatning ellik birinchi yalpi majlisini 2024-yil 30-mart kuni chaqirish to'g'risida qaror qabul qilindi.



Ta'kidlanganidek, videokonferensaloqa tizimidan foydalangan holda o'tkaziladigan yalpi majlisda qator masalalarni muhokama qilish nazarda tutilgan.

"Telekommunikatsiyalar to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sud hokimiyatining mustaqilligi kafolatlarini mustahkamlashga, sudlar faoliyati haqida jamoatchilikni xabardor qilishga hamda yagona sud amaliyotini ta'minlashga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi, "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi va "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonunlar shular jumlasidandir.

Shuningdek, yalpi majlis kun tartibidan "Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Yevroosiyo guruhi to'g'risida"gi Bitimga hamda Jinoiy daromadlarni legallashtirishga va terrorizmni

moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha Yevroosiyo guruhi byudjetini shakllantirish va ijro etish tartibi to'g'risidagi Nizomga o'zgartirishlar kiritish haqidagi Bayonnomani (Toshkent, 2022-yil 1-iyun) ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi Qonun ham o'rin olgan.

Senatorlar "Xalqaro mehnat tashkilotining Ishlayotgan erkaklar va ayollar uchun teng munosabatlar va teng imkoniyatlar: oilaviy majburiyatlarga ega xodimlar to'g'risidagi 156-sonli Konvensiyasini (Jeneva, 1981-yil 23-iyun) ratifikatsiya qilish haqida"gi Qonunni ham ko'rib chiqadi.

Bundan tashqari, senatorlar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning 2023-yildagi faoliyati to'g'risidagi hisoboti eshtiladi.

Yalpi majlisda muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning sifat tarkibini yaxshilash, o'simlik va hayvonot dunyosini asrash hamda kadastrini yuritish holati yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga parlament so'rovi yuborish masalasi muhokama qilinishi ham rejalashtirilmoqda.

Shu bilan birga, senatorlar Oliy Majlis Senati Kengashining bir qator qarorlarini tasdiqlash masalasini ham ko'rib chiqadi.

"Xalq so'zi".

TARAQQIYOTGA YETAKLOVCHI ISTIQBOLLI LOYIHALAR

Davlatimiz rahbarining Namangan viloyatiga bu galgi tashrifi oddiy odamlardan tortib, ziyolilar, ishbiarmonlar, nuroniy keksalar, talaba-yoshlargacha — barcha-barchaning diqqat markazida bo'ldi. Prezidentimizning ikki kunlik tashrifi, hech shubhasiz, viloyatning yaqin va o'rta istiqbolida muhim ahamiyat kasb etishi muqarrar. Bu tashrif davomida aholi vakillari, tadbirkorlar, ziyolilar bilan bo'lib o'tgan suhbatlarda, shuningdek, Namangan viloyati imkoniyatlarini ishga solish masalalariga bag'ishlangan yig'ilishda belgilab berilgan vazifalarning quyidagi jihatlarini yaqqol sezilib turdi.

Munosabat

Birinchidan, tashrif jarayonida Prezidentimiz tomonidan chuqur ilmiy yondashuvga asoslangan holda Namangan viloyatining tabiiy, iqtisodiy, intellektual va ijtimoiy-ma'naviy resurs salohiyatini safarbar etish, ulardan muammolar yechimi, kaliti sifatida foydalanish imkoniyatlari ochib berildi, hududlarni jadal rivojlantirishning drayver soha va sektorlari ko'rsatib o'tildi.

Bu borada, ayniqsa, davlatimiz rahbarining 10 ming kishini doimiy band qilish imkonini beradigan

drayver yo'nalish sifatida Pop, Chust, To'raqo'rg'on tumanlarida yo'l bo'yi servisini rivojlantirishga 2,5 trln. so'm investitsiya kiritish, "yadrosi" oliy ta'lim muassasalari hisoblangan 43 ta mahallada uy yotoqxonalarini talabalar uchun xostellar tizimini yaratish, Pop, Chust, Yangiqo'rg'on, Kosonsoy va Chortoq tumanlarida tog' turizmini rivojlantirish bo'yicha bergan yo'l-yo'riqlari aholimizda, ayniqsa, tadbirkorlarda katta qiziqish uyg'otdi.

Ikkinchidan, sanoat va qishloq

xo'jaligida yirik ishlab chiqarish quvvatlarining yaratilishi, iqtisodiyotning zamonaviy infratuzilma, xomashyo transport va logistikaning mukammal tarmoqlari bilan ta'minlanishi iqtisodiyotning uzoq istiqbolida barqaror rivojlanishining asosiy shartlaridan biridir.

Prezidentimiz tomonidan taklif etilgan Kosonsoy va Popda chorvachilik klasterlari, Popda yirik asalarichilik korxonasi tashkil etish, Namangan shahrida oltinni qayta ishlash, xomashyo yetkazish, mutaxassis tayyorlash va sotishning mutlaqo yangi modulini barpo etish, noruda konlarini o'zlashtirish hisobiga keramogranit va bazalt tola ishlab chiqaruvchi korxonalarni qurish, Chust tumanidagi "Alichelek" mis konini ishga tushirish yoki Qamchiq dovoni hududida logistika markazi, Namangan aeroportida yuk terminalini bunyod etish loyihalari viloyatni yaqin istiqbolida ko'p qutbli "o'sish nuqtalari"ga ega iqtisodiy mintqa darajasiga ko'tarishi muqarrar.



TURKIY DUNYO JIPSLIGINING YANA BIR YORQIN IFODASI

Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOY tomonidan Turkmanistonning Anau shahri 2024-yilda "Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti" deb e'lon qilingan. Shuningdek, YUNESKO rahnamoligida buyuk turkman shoiri va mutafakkiri Maxtumquli Firoq'iy tavalludining 300 yillik qutlug' yubiley sanasi dunyo miqosida keng nishonlanmoqda.

Do'stlik rishtalari

Turkmanistonda ayni kunlarda ushbu nufuzli tadbirlar munosabati bilan "Turkman zamini — qadimiy madaniyatlar markazi" mavzuida xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashyapti.

Mazkur tadbirida O'zbekiston media sohasi vakillarining ham ishtirok etayotgani mamlakatimizning



turkiy dunyoda o'z o'rniga ega ekani, shuningdek, O'zbekiston va

Turkmaniston o'rtasidagi azaliy do'stlik, hamjihatlik munosabatlari izchil rivojlanib

borayotganining yana bir yorqin ifodasi bo'lmoqda.



TARAQQIYOTGA YETAKLOVCHI ISTIQBOLLI LOYIHALAR



Uchinchidan, elektr energiyasiga boʻlgan talabning muttasil oshib borishi uni ishlab chiqarishga boʻlgan yondashuvni keskin oʻzgartirmoqda. Ayniqsa, bu, global muhitda ekologik taʼhid xavfi ortib borayotgan sharoitda yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Oʻzbekistondan bu boradagi pozitsiyasi jiddiy va barqaror tavsifga ega. Energiyaga boʻlgan ehtiyojni qayta tiklanuvchi manbalari hisobidan qoplash, bu borada, mavjud resurslardan toʻlaqonli foydalanish 2017 — 2021-yillarda muvaffaqiyatli amalga oshirilgan Harakatlar strategiyasida ham, 2022-yilda qabul qilingan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasida ham aniq koʻrsatib berilgan.

Davlatimiz rahbarining Namangan viloyatiga tashrif chogʻida eʼlon qilingan energiya quvvatlarini yaratish boʻyicha loyihalar viloyatdagi har bir vatandoshimizga quvonch berdi. Joriy 2024-yilda Norin daryosida 6 ta GESlar kaskadi, Pop tumanida 2 ta quyosh elektr stansiyasi, 2025-yilda Uchqoʻrgʻon tumani hududidagi Katta Andijon kanalida “Qoʻgʻay-1 va 2”, “Beshqoʻrgʻon-1 va 2” kichik GESlar kaskadi qurilishi natijasida jami 5 mlrd. kilovattdan ortiq elektr energiyasi ishlab chiqarish quvvatlarining yaratilishi mazkur loyihalarining nechogʻi yirik va keng qamrovli ekanini koʻrsatadi.

Toʻrtinchidan, tashrif jarayonida Prezidentimiz tomonidan eʼlon qilingan Namangan viloyatini yaqin istiqbolda iqtisodiy rivojlantirish boʻyicha loyihalarida xususiy sektorga, mahalliy va xorijiy sarmoyadorlar xohish-istaklariga eʼtibor qaratilishi xalqimizda tadbirkorlikka, investitsiya faoliyatiga boʻlgan qiziqish va ishonchni toʻqintalтира oldi. Davlat rahbari tomonidan belgilab berilgan iqtisodiy siyosat tamoyillaridan biri — biznesga sarmoya kiritishning eng samarali va umumijamiat manfaatlariga mos yoʻli tarmoq va sohalarga xususiy sektorni faol jalb etishdir.

Pop, Chust, Toʻraqoʻrgʻon tumanlarida yoʻl boʻyi servisiga investitsiyalar jalb etish, togʻ turizmi infratuzilmasini barpo qilish, Namangan shahridagi 16 ta sanoat zonasida qoʻshimcha loyihalar yaratish, Yangi Namangan shahri qurilishi joriy bosqichida 20 ming xonadonli turarjoy, IT-park, mehmonxona, biznes markazi, 68 gektarda “Yangi Oʻzbekiston bogʻi” barpo etish, yoʻllar qurish, taʼmirlash va saqlashga xususiy sektorni yanada kengroq jalb qilish borasidagi vazifalarning qoʻyilishi, shuningdek, Chust va Popda 10 ming aholi uchun “Yangi Oʻzbekiston” massivlari qurilishiga start berilishi viloyatimiz iqtisodiyotida tadbirkorlik va investitsiyaviy muhit uchun yangi davr boshlanganini koʻrsatadi.

Beshinchidan, tashrif jarayonida viloyat imkoniyatlarini ishga solish masalalariga bagʻishlab oʻtkazilgan yigʻilishda davlat rahbari ijtimoiy sohalarini rivojlantirish masalalariga ham alohida eʼtibor qaratib, 16 ta ixtisoslashtirilgan tibbiyot markazi negizida 3,5 ming oʻringa ega 2 ta tibbiyot markazi tashkil etish boʻyicha bergan topshirigʻi viloyat aholisi uchun quvonchli yangilik boʻldi. Bunday markazlarning ishga tushirilishi natijasida shoshilinch va boshqa ixtisoslashtirilgan tibbiy xizmatlar sifati yuqori darajaga koʻtarilib, aholining vaqt va mablagʻ sarfi sezilarli darajada tejallishi taʼminlanadi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan yana bir samarali loyiha oʻzining ulugʻvor ahamiyati bilan alohida ajralib turadi. Bu —

Namanganni Buxoro va Samarqand bilan bogʻlovchi temir yoʻl reyslari, Namangan — Pop — Chodak yoʻnalishida har kuni ekspress yoʻlovchi poyezdi qatnovini yoʻlga qoʻyish vazifasidir. Viloyat aholisiga yaratilayotgan bu muhim qulaylik orqali talabalarimiz ham ichki turizmdan umumiy foydalanish imkoniga ega boʻladi. Qolaversa, yurtimizning qadimiy shaharlariga sayohatlar uyushtirish, yoshlarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish, shuningdek, ularning oʻz uylariga borib kelishlariga ham qulay sharoitlar yaratishga samarali xizmat qiladi.

Tashrif davomida Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan gʻoyalarning ulugʻvorligi shundaki, Namangan viloyati maydonining 20 foizi togʻlardan iborat. Bu togʻ turizmini rivojlantirish uchun katta imkoniyat, demakdir. Ayniqsa, bunday loyihalar ni Pop, Chust, Yangiqoʻrgʻon, Kosonsoy va Chortoqda amalga oshirish mumkin. Germaniyalik hamkorlar bilan Shahrisabz tajribasi asosida bu tumanlarda togʻ turizmini rivojlantirish master-rejasini ishlab chiqish va yil yakunigacha loyihalar ni boshlash muhimligi taʼkidlandi.

Mahalliy va xorijiy sayyohlar oqimi keskin oʻsishi uchun transport sohasida imkoniyatlar toʻliq ishga solinmagani koʻrsatib oʻtiladi. Transport vazirligiga bayram kunlari avia va temir yoʻl reyslari sonini 2 barobar oshirish, Namangan yoki Fargʻonaga uchish jadvalini qayta koʻrib chiqib, vodiya har kuni boʻladigan aviareyslarni koʻpaytirish vazifasi yunklandi.

Viloyat aholisini ichimlik suvi bilan taʼminlashni yaxshilash masalasi ham eʼtibordan chetda qolmadi. Zarkent, Xojikent, Iskovoʻt, Buloqboʻshi, Oʻshlik shaharchalari va Namangan shahrida suv taʼminotini yaxshilash loyihasini jadallashtirishga koʻrsatma berildi. Shuningdek, Chust, Pop, Namangan va Mingbuloqda ichimlik va oqova suvini yaxshilashga 70 million dollar sarmoya kiritiladi.

Tashrif davomida viloyatda oliy taʼlim tizimini rivojlantirish masalasiga ham alohida eʼtibor qaratildi. Masalan, Namangan davlat universiteti misolida oliy taʼlim muassasalarini tubdan oʻzgartirish, yangi pogʻonadagi oliy maktab darajasiga koʻtarishi yoʻnalishlari belgilab berildi.

Davlatimiz rahbari tashrif chogʻida Namanganda Isʼhoqxon Ibrat nomidagi xorijiy tillar instituti kampusi qurilishini ham

koʻzdan kechirdi. Shuningdek, 200 ming aholiga moʻljallangan Yangi Namangan shahri qurilishi jarayonlari Prezidentga taqdimot qilindi. Hozirda bu yerda 2 764 xonadonli koʻp qavatli uylar qad rostlagan, yana 648 xonadonli uylar qurilmoqda. Bu yerda, shuningdek, bogʻcha, maktab va boshqa ijtimoiy muassasalar, ish oʻrinlari uchun sanoat zonasi ham boʻladi. Yangi



“Pop, Chust, Toʻraqoʻrgʻon tumanlarida yoʻlboʻyi servisiga investitsiyalar jalb etish, togʻ turizmi infratuzilmasini barpo qilish, Namangan shahridagi 16 ta sanoat zonasida qoʻshimcha loyihalar yaratish, Yangi Namangan shahri qurilishi joriy bosqichida 20 ming xonadonli turarjoy, IT-park, mehmonxona, biznes markazi, 68 gektarda “Yangi Oʻzbekiston bogʻi” barpo etish, yoʻllar qurish, taʼmirlash va saqlashga xususiy sektorni yanada kengroq jalb qilish borasidagi vazifalarning qoʻyilishi, shuningdek, Chust va Popda 10 ming aholi uchun “Yangi Oʻzbekiston” massivlari qurilishiga start berilishi viloyatimiz iqtisodiyotida tadbirkorlik va investitsiyaviy muhit uchun yangi davr boshlanganini koʻrsatadi.”

Oʻzbekiston bogʻi ham shu yerda barpo etiladi.

Bu masalaga kengroq toʻxtaladigan boʻlsak, aslida, davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan 2017-yilda Toʻraqoʻrgʻon tumanida Isʼhoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabi, bogʻ va muzey barpo etilgan edi. Shavkat Mirziyoyev 2021-yilda namanganlik saylovchilar bilan uchrashuvda jadid bobomiz nomida chet tillari oliyogʻli tashkil qilish maqsadini aytgandi. Bu gʻoya tezda amalga oshib, 2022-yilda Toʻraqoʻrgʻon tumanida shunday institut tashkil topdi. Bu taʼlim dargohida jahon tillari fakulteti, 6 ta kafedra va 16 ta taʼlim yoʻnalishi bor. Hozirda ikki bosqichda 1 ming 523 nafar talaba saboq olmoqda. Kelgusi yillarda ularning soni yanada ortadi. Bu ulugʻvor maqsadlar ijrosi uchun Yangi Namangan hududida 5 gektar joyda oliyogʻli uchun yangi kampus barpo etilmoqda. Hozirda ming oʻrinli oʻquv binosi, sport zali, oshxona qad rostlagan. Ularni shu yil avgustda foydalanishga topshirish rejalashtirilgan. Keyingi bosqichlarda talabalar yotoqxonasi va yana bir oʻquv binosi barpo qilinishi koʻzda tutilgan.

Davlatimiz rahbari Yangi Namangan shahri qurilishi bilan tanishar ekan, bu

qulaylik, xavfsizlik, sifati ekspluatatsiyani mujassam etgan “aqli shahar” boʻlishi kerakligini taʼkidladi. Shu bois loyihani yana bir bor sinchiklab koʻrib chiqish, sifat nazoratini kuchaytirish boʻyicha koʻrsatmalar berdi.

Aslida, zamonaviy universitet “formulasi” Prezidentimizning oʻndan ortiq Farmon va qarorlarida, xususan, 2019-yil 8-oktyabrda Farmoni bilan tasdiqlangan Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida aniq belgilab berilgan boʻlib, sifati taʼlim, yuqori kasbiy koʻnikmalarni shakllantirish, taʼlim dasturlaridan toʻliq ilmiy loyihalargacha boʻlgan ishlanmalarni jamiyat va iqtisodiyotning amaldagi va kelgusida kutilayotgan aniq muammolari yechimiga qaratish, xalqaro taʼlim va fan maʼkoniga integratsiyalashuv, sogʻlom raqobat muhiti kabilarni oʻz ichiga oladi.

Shu oʻrinda taʼkidlash joizki, taʼlim masalasi Shahrisabz Mirziyoyevning har bir maʼruzasidan, murojaatidan, davlatlaridan oʻrin olib kelgan. Bu borada Prezidentimizning 2022-yil 20-dekabrda Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasida

jadid bobolarimizdan keltirgan “*Najot — taʼlimda, najot — tarbiyada, najot — bilimda. Chunki barcha ezuq maqsadlarga bilim va tarbiya tufayli erishiladi*” degan iqtibosi yoki “*Taʼlim sifatini oshirish — Yangi Oʻzbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona toʻgʻri yoʻlidir*” degan chaqirigʻi har bir Oʻzbekiston fuqarosining taʼlimiga boʻlgan munosabatini qayta koʻrib chiqishga undashi tabiiy.

Davlatimiz rahbarining bu galgi tashrifida Namangan davlat universiteti rahbariyati, professor-oʻqituvchilari zimmasiga ham masʼuliyatli vazifalar yuklandi. Birgina misol — taʼlim jarayonini yangi avlod adabiyotlari bilan toʻliq taʼminlash, taʼlim sifatini oshirish uchun oʻquv dasturlarini tubdan yangilash boʻyicha belgilab bergan vazifalar universitet, qolaversa, viloyat oliy taʼlim tizimining yaqin istiqboli uchun katta ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida sanab oʻtilgan vazifalar ijrosi viloyat iqtisodiyoti, ijtimoiy hayoti, tibbiyot, taʼlim va fan ravnagiga, xalqimizning munosib turmush darajasini taʼminlashga xizmat qiladi.

Maʼlumki, har bir taʼlim yoʻnalishi tayyorlanadigan mutaxassislik nuqtayi nazaridan oʻziga xos oʻquv jarayonini qamrab oladi. Darhaqiqat, hozirgi kunda universitetda jami 21 ta taʼlim sohasiga tegishli 71 ta taʼlim yoʻnalishi boʻyicha mutaxassis tayyorlanadi. Bu bir muhitda 21 xil, oʻzaro mos boʻlmagan mutaxassisliklar boʻyicha taʼlim jarayonini tashkil etish, demakdir. Davlatimiz rahbarining taʼlim yoʻnalishlari sonini 71 tadan 56 taga kamaytirish borasidagi topshirigʻi universitetda oliy maʼlumotli mutaxassislar tayyorlashda oʻziga xos ixtisoslashuv hamda mavjud resurslar va intellektual salohiyatdan samarali foydalanish imkoniyatini beradi. Qolaversa, bu orqali boshqa oliy taʼlim muassasalari bilan oʻzaro sogʻlom raqobat muhiti yaratiladi.

Oʻquv dasturlarini yangilash — taʼlimni mutaxassislar buyurtmachilari boʻlgan korxona, tashkilot va muassasalarning aniq talablari, buyurtmalari asosida tashkil etish, bitiruvchilarda yuqori kasbiy koʻnikmalarni shakllantirish universitetga xalqaro taʼlim bozoriga tezroq chiqishga, oliy taʼlimning xalqaro reytingidan yuqori oʻrinlarni olishga imkoniyat yaratadi.

Ayni chogʻda oʻquv dasturlarini yangilashda Namangan viloyati salohiyatini safarbar etish boʻyicha Prezidentimiz tomonidan belgilangan vazifalarga ustuvorlik beriladi. Ayniqsa, Namangan viloyati uchun nisbatan yangi sohalar va loyihalar boʻyicha, jumladan, zargarlik sanoatiga muhandislar, dizaynerlar, marketologlar, togʻ turizmi menejmenti, logistika markazlari va yuk terminallari, quyosh va kabi energetika stansiyalari uchun malakali kadrlar tayyorlashni koʻzda tutuvchi dasturlar amalga tatbiq etiladi.

Yangi investitsiyaviy loyihalarining kadrlarga boʻlgan real ehtiyojidan kelib chiqqan holda, turdosh mutaxassisliklar bazasida talabalar uchun qoʻsh malaka va amaliy malaka beruvchi taʼlim dasturlari joriy etiladi.

Oʻquv dasturlarini yangilashda xorijiy mamlakatlarning yetakchi universitetlari amaliyotida samarali qoʻllanib kelinayotgan dasturlar va tajribalarga alohida eʼtibor qaratiladi.

Taʼlim jarayonini zamonaviy oʻquv adabiyotlari bilan taʼminlashda ham yangicha yondashuv zamon talabidir. Endilikda oʻquv adabiyotlarini yaratishda zamonaviy fan yutuqlari va ishlab chiqarishdagi amaliy tajriba uygʻunligi taʼminlanadi. Oʻquv adabiyotlarini yaratishda ochiq tanlovlar oʻtkazish tizimi joriy etiladi.

Xorijiy mamlakatlarning yetakchi olimlari tomonidan yaratilgan va amaliyotda muvaffaqiyatli qoʻllanib kelinayotgan darsliklar tarjima qilinib, milliy taʼlimga tatbiq etiladi. Bu borada hozirda Namangan davlat universiteti 20 dan ortiq xorijiy oliy taʼlim muassasalari bilan hamkorlikni yoʻlga qoʻygan.

Sobitxon TURGʻUNOV,
Namangan davlat universiteti rektori,
pedagogika fanlari doktori, professor.

QISQA

SATRLARDA

Ichki turizm yarmarkasi

Jizzax shahrida joylashgan Yoshlar innovatsion markazida ichki turizm yarmarkasi tashkil etildi. Viloyat turizm boshqarmasi tomonidan oʻtkazilgan tadbirda sayyohlik firmalari va keng jamoatchilik vakillari qatnashdi.



Yarmarka davomida hududdagi mavjud sayyohlik firmalari faoliyatini yorituvchi hamda milliy hunarmandchilik koʻrgazmalari namoyish etildi.

Taʼkidlanganidek, Jizzaxda turizm sohasini rivojlantirish yuzasidan koʻplab yutuqlarga erishildi. Jumladan, oʻtgan yili 145 ming nafar xorijiy sayyoh tashrifi kuzatilgan boʻlsa, joriy yilning oʻtgan davrida koʻrsatkich 51 ming 406 nafarni tashkil etgan.

“Chiqindisiz dunyo uchun!” ommaviy ekoaksiyasi oʻtkaziladi

Oʻzbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi tomonidan “World Zero-Waste day” munosabati bilan Qoraqalpogʻiston Respublikasi, Toshkent shahri hamda viloyatlarda “Chiqindisiz dunyo uchun!” ommaviy ekoaksiya uyushtiriladi.

Sanitar tozalash ishlarini tashkil etish respublika markazi maʼlumotiga koʻra, tadbir Oʻzbekiston boʻylab joriy yilning 30-mart kuni soat 10:00 da start oladi.

Aytish joizki, mazkur ekoaksiya mamlakatimizda ona tabiat tozaligi hamda obodligi yoʻlida amalga oshirilayotgan ezuq loyihalarining mantiqiy davomi boʻladi.

6 ta logistika markazi ishga tushdi

Surxondaryoda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining eksportiga koʻmaklashuvchi 6 ta logistika markazi ishga tushirildi.



Ushbu logistika markazlarida barcha qishloq xoʻjaligi mahsulotlarining sifati, yaroqlik muddati zamonaviy talablar asosida fitonazorat tekshiruvidan oʻtkaziladi. Shu bilan birga, bojxona, transport, karantin va boshqa zarur xizmatlar shu yerning oʻzida tashkil etilgan.

Maʼlumotlarga koʻra, Muzrabot tumanidagi eksportga koʻmaklashuvchi shunday logistika markazida dastlabki 10 ming tonna ertagi piyoz eksportga tayyorlanmoqda.

“Oʻrik gullaganda”

Fargʻona viloyatida “Oʻrik gullaganda” festivali tashkil etildi.

Viloyat hokimligi hamda bir qator hamkor tashkilotlar tashabbusi bilan ilk bor oʻtkazilgan ushbu festival umumxalq sayliga aylanib ketdi. Xususan, Oʻzbekiston tumanining Oʻqchi qishlogʻidagi qiygʻos gullagan azim oʻrik daraxtlari ostida milliy oʻyinlar, oʻzbekona urf-odatlar va qadriyatlar namoyishi, ijodkorlar chiqishlari koʻngillarga koʻklam tarovatini olib kirdi.

Tadbir ishtirokchilari tomonidan ushbu festivalning anʼanaga aylanishi, tabiat qoʻynida oʻtkaziladigan sayillar ekologik tarbiya, sogʻlom turmush tarzi targʻiboti, ijodkorlar uchun ilhom manbai boʻlib xizmat qilishi taʼkidlandi.

“Xalq soʻzi”.

ERTANGI KUNGA ISHONCH VA MASʼULLIK HISSI

Keyingi yillarda Namangan viloyatida davlatimiz rahbarining har bir hudud imkoniyatidan kelib chiqib, yangi korxonalar tashkil etish, ish oʻrinlari yaratish, umuman, buniyodkorlikning barcha yoʻnalishiga oid topshirigʻiga asosan keng koʻlamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Har bir sohada ulkan oʻzgarishlar, tub burilishlar boʻlyapti. Xususan, iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirish yoʻlidagi saʼy-harakatlar koʻlami kun sayin kengayib, eksport salohiyati yuksalib bormoqda.

Raqamlarga eʼtibor qaratadigan boʻlsak, viloyatda 2016-yilda sanoat korxonalari soni 2892 ta, 2023-yil yakuni boʻyicha esa 4909 taga yetdi. Bu koʻrsatkich sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish miqdorining oshishiga zamin yaratmoqda. Agar 2016-yilda viloyat boʻyicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish koʻrsatkichi 3,4 trln. soʻmni tashkil etgan boʻlsa, 2023-yilga kelib bu koʻrsatkich 20,8 trln. soʻmga yetdi. Shuningdek, viloyatda ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulot 2023-yilga kelib 47,1 trln. soʻmga teng boʻldi. Bu raqam, albatta, viloyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish dinamikasi yildan-yilga yuksalib borayotganini koʻrsatmoqda.

Davlatimiz rahbarining 25-26-mart kunlari Namangan viloyatiga amalga oshirgan galdagi tashrifi ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishda oʻziga xos drayver vazifasini oʻtaydigan sohalar

rivoji hamda 3 mln. 100 mingga yaqin aholining bugungi va ertangi kuniga daxldor yutuqlarga boy boʻlganligi bilan alohida ahamiyat kasb etdi.

Maʼlumki, Namangan zamini azal-azaldan koʻlgul hunarmandlar, mirishkor bogʻbonlar, omikor dehqonlar yurti hisoblanadi.

Bugun chustlik dehqonlarning Jizzax, Qashqadaryo, Surxondaryo, Navoiy, Buxoro va Toshkent viloyatlaridagi dalalarda poliz va sabzavot ekinlari ekib, el dasturxoniga tuhfa etish uchun quyoshdan-da erta uygʻonib mehnat qilayotganligini aytmasak ham, yurtidoshlarimiz buni yaxshi bilishadi. Yoki birgina Namangan shahrida uski kiyim-bosh tikadigan mingga yaqin katta-kichik korxonalarning faoliyat yuritayotgani, toʻqimachilik sohasida ham dunyo brendlari darajasida mahsulot ishlab chiqarish istagidagi tadbirkorlarning tinib-

tinchimasligining namunasi emasmi?

Prezidentimiz tashrif davomida “Gavhar grup” korxonasi faoliyati bilan tanishish chogʻida qadimiy hunarmandchilik turi boʻlgan zargarlikni yanada rivojlantirish, ayni sanoat miqyosidagi ishlab chiqarish darajasiga olib chiqish, viloyatning bu sohadagi salohiyatini oshirish masalasiga alohida eʼtibor qaratdi.

Negaki, hozirgi vaqtda mamlakatimizda qazib olinayotgan oltinning atigi 6 foizi qayta ishlanib, bor-yoʻgi 78 mln. dollarlik mahsulot eksportga chiqarilayotgani zargarlik sohasini rivojlantirish har qachongidan ham dolzarb masala ekanligini koʻrsatmoqda. Chunki avvallari zargar ustalarining erkin faoliyat yuritishi, xomashyo sotib olishi va ishlab chiqarilgan mahsulotlarga bozor topishida jiddiy muammolar kuzatilgan boʻlsa, endilikda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan soha taraqqiyoti uchun keng imkoniyatlar yaratildi. Tashrif davomida Turkiya tajribasi asosida Namanganda oltinni qayta ishlash va sotish boʻyicha yirik markazni ishga tushirish lozimligi aytib oʻtiladi. Ushbu markaz yurtimizda zargarlik sohasi rivojlanishiga, bunday

mahsulotlar eksportini ikki baravar oshirishga xizmat qiladi.

Taʼkidlash joiz, Sirdaryoning ikki imogʻidan biri — bu Norin daryosi boʻlib, undan, asosan, qishloq xoʻjaligida foydalanib kelinmoqda. Davlatimiz rahbari Norin daryosida GESlar kaskadi qurilishiga start berdi. Mazkur energetika korxonalarining ishga tushirilishi kelgusida yiliga 1 mlrd. kilovatt-soat energiya ishlab chiqarilishiga zamin yaratib, 310 mln. metr kub gaz iqtisod qilinishiga olib keladi.

Pop tumanining, asosan, adirkilardan iborat boʻlgan 2300 gektar yer maydonida Germaniya va BAAning tegishli kompaniyalari tomonidan har birining quvvati 500 megavatt boʻlgan 2 ta quyosh elektr stansiyasi quriladi va shu yil yakuniga qadar tarmoqqa ulanishi rejalashtirilgan. Buning natijasida yiliga 7,8 mlrd. kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi, bu esa viloyatning 5,5 mlrd. kVt-soatlik talabini toʻliq qoplash bilan birga 120 kishini doimiy ish bilan taʼminlashga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining Pop tumanida mavjud imkoniyatlarni toʻliq ishga tushirish boʻyicha bergan galdagi vazifalari toʻgʻrisida batafsilroq toʻxtalsak. Negaki, men 47-Pop saylov

Xullas, Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan ustuvor vazifalar bandlikni taʼminlashga, aholi daromadlarini oshirishga, hududning turizm imkoniyatlarini yanada kengaytirishga xizmat qiladi. Albatta, biz, deputatlar ham ushbu jarayonda faol ishtirok etishimiz, har bir masalaga inson manfaat nuqtayi nazaridan masʼullik bilan chuqur yondashishimiz maqsadga muvofiq boʻladi.

Abdumalik AKRAMOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati,
pedagogika fanlari doktori, professor.

Oʻzbekiston Milliy teleradiokompaniyasi jamoasi “Yoshlar” teleradiokanalni AJ katta muharriri, mehnat faxriysi, Oʻzbekiston Respublikasida xizmat koʻrsatgan jurnalist **Tair MULLABAYEV**ning vafoti munosabati bilan marhumning oila aʼzolari va yaqinlariga chuqur hamdardlik bildiradi.

